



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*Izoh: 2024-yil yanvar-sentabr hamda
2024-yil 1-oktabr holatiga ma'lumotlar
dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha
yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.*



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

(2024-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar)

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 4 275,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 66,8 ming kishiga yoki 1,6 foizga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 1 563,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,6 %), qishloq aholisi soni 2 711,6 ming kishi (63,4 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni


4 275,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+68,8 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,6 %

Qishloq



63,4 %

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

(2024-yil yanvar-sentabr)




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

(2024-yil 1-oktabr holatiga)



2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **34,0 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **54,9 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **11,1 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi (2024-yil 1-yanvar holatiga)



2024-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **270,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **72,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **251,4 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **81,2 ming kishini** tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

(2024-yil 1-yanvar holatiga)



2024-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,0** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,6** yoshga, ayollar uchun esa **76,3** yoshga teng. Shahar joylari **76,4** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **71,8** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2024-yil 1-oktabr holatiga)




Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1-oktabr holatiga, ming kishi

	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	4 185,6	4 275,3	102,1
Samarqand sh.	582,4	593,4	101,9
Kattaqo'rg'on sh.	94,6	95,6	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	172,2	176,2	102,3
Bulung'ur	200,9	205,6	102,3
Jomboy	188,4	192,9	102,4
Ishtixon	274,3	280,6	102,3
Kattaqo'rg'on	292,2	298,3	102,1
Qo'shrabot	141,1	143,8	101,9
Narpay	226,3	230,5	101,9
Payariq	271,7	278,4	102,5
Pastdarg'om	381,0	389,7	102,3
Paxtachi	151,8	154,0	101,4
Samarqand	271,6	277,3	102,1
Nurobod	161,7	164,9	102,0
Urgut	555,6	569,1	102,4
Toyloq	219,8	225,0	102,4


Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2024-yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)




Samarqand viloyatida 2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **254,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,3** kishiga ortgan (2023-yilda 1 kv.km.ga **249,6** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 560,0** kishi, Samarqand shahrida **4 945,0** kishi, Toyloq tumanida **803,6** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **33,9** kishi, Qo'shrabot tumani **66,6** kishi, Paxtachi tumani **111,6** kishini tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi (1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr, kishi)

Urgut	12 220	28,9
Samarqand sh.	9 638	21,8
Pastdarg'om	7 641	26,4
Payariq	6 067	29,4
Kattaqo'rg'on	5 855	26,4
Ishtixon	5 852	28,1
Samarqand	5 065	24,6
Toyloq	4 678	28,0
Bulung'ur	4 330	28,4
Narpay	4 261	24,9
Jomboy	3 979	27,8
Oqdaryo	3 457	26,4
Nurobod	3 051	24,9
Paxtachi	2 867	25,0
Qo'shrabot	2 771	25,9
Kattaqo'rg'on sh.	1 409	19,8

Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart
24 075 bola

O'g'il bolalar

12 532



52,1 %

Qiz bolalar

11 543



47,9 %

Yanvar-iyun

50 360 bola

O'g'il bolalar

26 163



52,0 %

Qiz bolalar

24 197



48,0 %

Yanvar-sentabr

83 141 bola

O'g'il bolalar

43 112



51,9 %

Qiz bolalar

40 029



48,1 %



2024-yil yanvar-sentabr oylarida **83,1** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,2** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilda **27,5** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar

2 477



55,5 %

Ayollar

1 986



44,5 %

Yanvar-iyun

Erkaklar

4 970



55,8 %

Ayollar

3 935



44,2 %

Yanvar-sentabr

Erkaklar

7 969



55,5 %

Ayollar

6 384



44,5 %




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr, kishi)

Samarqand sh.	2 353	5,3
Urgut	1 681	4,0
Pastdarg'om	1 230	4,3
Kattaqo'rg'on	978	4,4
Payariq	970	4,7
Samarqand	928	4,5
Ishtixon	852	4,1
Narpay	781	4,6
Bulung'ur	714	4,7
Toyloq	697	4,2
Jomboy	620	4,3
Oqdaryo	605	4,6
Paxtachi	573	5,0
Nurobod	528	4,3
Qo'shrabot	473	4,4
Kattaqo'rg'on sh.	370	5,2

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **14,3** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,7** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

(2024-yil yanvar-sentabr, kishi)




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **54,7** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4** foizi – o'simtalardan, **5,9** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **5,5** foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,4** foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,9** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **21,2** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr, birlik)

Urgut	2 665	6,3
Samarqand sh.	2 628	6,0
Pastdarg'om	1 919	6,6
Kattaqo'rg'on	1 510	6,8
Payariq	1 480	7,2
Samarqand	1 341	6,5
Ishtixon	1 327	6,4
Toyloq	1 144	6,9
Narpay	1 108	6,5
Bulung'ur	1 010	6,6
Jomboy	879	6,1
Oqdaryo	823	6,3
Paxtachi	782	6,8
Qo'shrabot	717	6,7
Nurobod	710	5,8
Kattaqo'rg'on sh.	456	6,4

Yanvar-iyun




Yanvar-sentabr



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 20,5 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 6,7 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr, birlik)

Samarqand sh.	649	1,5
Pastdarg'om	318	1,1
Urgut	313	0,7
Samarqand	254	1,2
Payariq	245	1,2
Kattaqo'rg'on	224	1,0
Narpay	207	1,2
Ishtixon	182	0,9
Bulung'ur	175	1,1
Oqdaryo	174	1,3
Paxtachi	167	1,5
Toyloq	166	1,0
Jomboy	141	1,0
Kattaqo'rg'on sh.	113	1,6
Qo'shrabot	76	0,7
Nurobod	71	0,6

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar

478



42,2 %

Qishloq

655



57,8 %

Yanvar-iyun

Shahar

1 000



44,2 %

Qishloq

1 265



55,8 %

Yanvar-sentabr

Shahar

1 521



43,8 %

Qishloq

1 954




56,2 %




2024-yil yanvar-sentabr oylarida 3,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan. (2023-yil yanvar-sentabr oylarida 1,1 promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi (2024-yil yanvar-sentabr)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **47,3** foizi farzandsiz, **26,0** foizi bitta farzand bilan va **26,7** foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **3 475** tani, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 10 800 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni 12 839 kishini, migratsiya saldosi minus 2 039 kishini tashkil etdi. (2023-yil yanvar-sentabr oylarida minus 3 413 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-sentabr)

(kishi)

	2023-yil			2024-yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	8 653	12 066	-3 413	10 800	12 839	-2039
Samarqand sh.	3962	2196	1766	3535	2656	879
Kattaqo'rg'on sh.	353	500	-147	380	708	-328
<i>tumanlar:</i>			0			0
Oqdaryo	432	445	-13	569	431	138
Bulung'ur	286	584	-298	691	641	50
Jomboy	254	346	-92	358	335	23
Ishtixon	289	825	-536	397	704	-307
Kattaqo'rg'on	344	820	-476	518	926	-408
Qo'shrabot	243	760	-517	324	657	-333
Narpay	214	635	-421	345	708	-363
Payariq	424	1005	-581	872	954	-82
Pastdarg'om	415	720	-305	698	686	12
Paxtachi	313	963	-650	457	1050	-593
Samarqand	584	636	-52	999	728	271
Nurobod	102	416	-314	199	470	-271
Urgut	202	945	-743	231	862	-631
Toyloq	236	270	-34	227	323	-96

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35